

O‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA BIOMAHSULOTLAR YETISHTIRISHNING HOLATI VA IQTISODIY SALOHIYATI

Soliyev Damirjon Nurmatovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
stajyor tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonning turli hududlarida biomahsulotlar yetishtirish jarayoni, mavjud holati va iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi. Hududiy agroiklim sharoitlari, ishlab chiqarish resurslarining mavjudligi va biomahsulotlarga bo‘lgan bozor talabi asosida yetishtirish imkoniyatlari baholanadi. Tahlil natijalariga tayangan holda biomahsulotlar sektorining iqtisodiy salohiyati va istiqbollari aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: biomahsulotlar, ekologik dehqonchilik, iqtisodiy samaradorlik, hududiy tahlil, yashil iqtisodiyot, agrosanoat.

Аннотация

В данной статье рассматриваются процессы производства биопродукции в различных регионах Узбекистана, текущее состояние отрасли и её экономическая эффективность. На основе анализа агроклиматических условий регионов, доступности производственных ресурсов и рыночного спроса на биопродукцию оцениваются возможности её выращивания. По результатам анализа определяются экономический потенциал и перспективы развития сектора биопродукции.

Ключевые слова: биопродукция, экологическое земледелие, экономическая эффективность, региональный анализ, зелёная экономика, агропромышленность.

Abstract

This article examines the processes of bioproduct production in various regions of Uzbekistan, the current state of the sector, and its economic efficiency. Based on an analysis of the agro-climatic conditions of the regions, the availability of production resources, and market demand for bioproducts, the possibilities for their cultivation are assessed. The results of the analysis reveal the economic potential and development prospects of the bioproduct sector.

Keywords: bioproducts, ecological farming, economic efficiency, regional analysis, green economy, agro-industrial sector.

KIRISH

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida ekologik muammolarning keskinlashuvi, oziq-ovqat xavfsizligi, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish bilan bog‘liq global jarayonlar natijasida biomahsulotlar ishlab chiqarish va iste‘molini rivojlantirish muhim dolzarb masalalardan biriga aylangan. Biomahsulotlar — bu kimyoviy o‘g‘itlar, pestitsidlar va genetik modifikatsiya qilingan omillarsiz yetishtirilgan, ekologik toza va inson salomatligiga zarar yetkazmaydigan mahsulotlar bo‘lib, ular nafaqat ekologik barqarorlik, balki iqtisodiy samaradorlikni ham ta‘minlash imkonini beradi. O‘zbekiston Respublikasida ilgari surilayotgan “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi

doirasida biomahsulotlar ishlab chiqarish istiqbollari yanada kengaydi. Qishloq xo‘jaligi sohasida olib borilayotgan islohotlar, yer resurslaridan oqilona foydalanish, ekologik toza ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish, agroklastlar va fermer xo‘jaliklarining yangi shakllarini qo‘llab-quvvatlash orqali biomahsulotlar salohiyatini oshirish imkoniyatlari yaratilmoqda.

O‘zbekistonning har bir hududi — iqlimi, yer-suv resurslari, agrobio-xilma-xilligi jihatidan noyob bo‘lib, bu biomahsulotlar yetishtirishni hududiy ixtisoslashuv asosida rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi. Masalan, Farg‘ona vodiysida bog‘dorchilik va sabzavotchilik mahsulotlari, Qoraqalpog‘istonda esa sholi va poliz mahsulotlari ekologik asosda yetishtirilmoqda. Shu bilan birga, ba‘zi hududlarda bu boradagi iqtisodiy samaradorlik hali to‘liq o‘rganilmagan, infratuzilma va bozor mexanizmlari yetarli darajada shakllanmagan.

Ushbu tadqiqot ishining asosiy maqsadi — O‘zbekistonning turli hududlarida biomahsulotlar yetishtirishning amaldagi holatini tahlil qilish, iqtisodiy samaradorligini baholash va hududiy ixtisoslashuvga asoslangan rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat. Mazkur ish biomahsulotlar yetishtirish orqali nafaqat barqaror qishloq xo‘jaligi tizimini shakllantirish, balki hududiy iqtisodiy o‘shish va aholi salomatligini yaxshilash borasidagi yangi yondashuvlarni asoslashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Biomahsulotlar yetishtirish sohasi bo‘yicha so‘nggi yillarda nafaqat xalqaro miqyosda, balki O‘zbekiston ilmiy makonida ham ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu adabiyotlar biomahsulotlar tushunchasi, ularning iqtisodiy samaradorligi, ekologik foydasi va hududiy ixtisoslashuvi kabi jihatlarni yoritishga qaratilgan. Xalqaro manbalarda (masalan, IFOAM Organics International va FAO hisobotlarida) biomahsulotlar ekologik xavfsizligi, global bozordagi o‘shish sur‘atlari va ishlab chiqarishning innovatsion texnologiyalari keng tahlil qilingan. Jumladan, Lampkin o‘z ishida organik dehqonchilikning rentabelligi va tuproq unumdorligini saqlab qolishdagi o‘rni haqida chuqur ma‘lumot beradi [4]. Shuningdek, Willer va Lernoud tomonidan chop etilgan “The World of Organic Agriculture” hisobotida 180 dan ortiq mamlakatlardagi organik mahsulotlar ishlab chiqarish statistikasi keltirilib, iqtisodiy salohiyat jihatidan rivojlanayotgan davlatlarga alohida e‘tibor berilgan [5].

Mahalliy tadqiqotlar orasida Tursunov A. [1], Shirinov O. [2] va G‘ulomova M. [3] kabi olimlarning ishlarida O‘zbekistonda ekologik qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, biomahsulotlar eksporti va agrobiznes modellarining samaradorligi masalalari ko‘rib chiqilgan. Jumladan, Tursunov A. o‘z tadqiqotida Andijon viloyatida organik sabzavotchilikni joriy etish orqali yer resurslaridan barqaror foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyundagi PQ–4749-sonli qarorida “Organik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va eksportini rivojlantirish” masalalari davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Ushbu hujjatda organik mahsulot yetishtiruvchilarga soliq imtiyozlari, subsidiyalar va xalqaro sertifikatlashtirish tizimlari bilan ishlashga ko‘maklashish choralari ko‘zda tutilgan [6], [7].

Bundan tashqari, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Statistika agentligi va O‘zgidromet kabi rasmiy manbalar orqali O‘zbekiston hududlarining agroiqlimiy holati, ekin maydonlari va hosildorlik darajalari bo‘yicha statistik ma‘lumotlar to‘plangan bo‘lib, ular biomahsulotlar yetishtirishdagi hududiy farqlarni tahlil qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, ayrim ilmiy maqolalarda (masalan, “Ekologik dehqonchilikni rivojlantirish yo‘llari”, 2020, Iqtisodiyot va innovatsiya jurnali) biomahsulotlarning narxлари, iste‘molchilarning talabi, marketing strategiyalari va eksport imkoniyatlari yoritilgan [8].

METODOLOGIYA

Maqolada ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, sohaga oid mavjud adabiyotlarni tahlil qilish, Prezidentimizning farmon va qarorlari, qonun hamda tadqiqot mavzusiga oid xorijiy va mahalliy adabiyotlardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dunyo miqyosida ekologik muvozanatning buzilishi, kimyoviy vositalarning haddan tashqari qo‘llanilishi va oziq-ovqat xavfsizligi masalalari biomahsulotlar yetishtirishga bo‘lgan talabni keskin oshirdi. Xususan, 2020-yildan boshlab COVID-19 pandemiyasi davrida sog‘lom oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talab yanada kuchaydi. Bu holat O‘zbekistonda ham ekologik qishloq xo‘jaligiga o‘tish zaruratini keskinlashtirdi. Biomahsulotlar – bu genetik modifikatsiyalangan urug‘lardan foydalanmasdan, kimyoviy o‘g‘itlar, pestitsidlar va boshqa sintetik moddalarsiz yetishtirilgan ekologik toza mahsulotlardir. Ular inson salomatligi uchun xavfsiz bo‘lib, tuproq unumdorligini saqlash va atrof-muhitni asrashda muhim rol o‘ynaydi.

Biomahsulotlar – bu ekologik dehqonchilik mahsuli bo‘lib, ularning asosiy tamoyillari tuproq unumdorligini uzoq muddatga saqlash, resurslardan samarali foydalanish, yashil texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish, mahalliy iqlim sharoitlariga moslashtirilgan agrosanoat modeli kabilar kiradi. Biomahsulotlar ishlab chiqarish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy foyda ham keltiradi. Mahsulotlar yuqori narxda sotiladi, eksport uchun keng imkoniyatlar mavjud, tashqi bozorda biomahsulotlarga yuqori talab mavjud (jumladan, Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya, Yaponiya).

1-jadval.

O‘zbekistonning har bir hududi biomahsulotlar yetishtirishning xususiyatlari¹

Hudud	Ixtisoslashgan mahsulotlar	Biomahsulot salohiyati
Andijon	Sabzavotlar, mevalar	Organik sabzavotchilik rivojlanmoqda
Qashqadaryo	G‘alla, poliz mahsulotlari	Issiq iqlim — pestitsidsiz yetishtirish imkonini beradi
Buxoro	Qand lavlagi, g‘o‘za	Keng yer maydonlari — ekologik dehqonchilikni joriy qilish mumkin

¹ Muallif ishlanmasi

Hudud	Ixtisoslashgan mahsulotlar	Biomahsulot salohiyati
Qoraqalpog‘iston	Sholi, poliz, kartoshka	Tuproq sho‘rlangan — organik texnologiyalarni sinovdan o‘tkazish maydoni sifatida
Surxondaryo	Meva, sitrus, sabzavotlar	Janubiy iqlim — tezpishar ekinlar uchun qulay

O‘zbekiston hududlarining iqlimiy, tuproq-iqlim va agroekologik sharoitlari har xil bo‘lgani sababli, har bir hududda biomahsulotlar yetishtirish salohiyati turlicha namoyon bo‘lmoqda. Masalan, Andijon viloyati organik sabzavotchilikni rivojlantirishda ixtisoslashayotgan bo‘lsa, Qashqadaryo va Surxondaryoda issiq va janubiy iqlim tufayli pestitsidsiz va tez yetiladigan ekinlarni yetishtirish uchun qulay sharoit mavjud, Buxoroda keng yer maydonlarida ekologik dehqonchilikni yo‘lga qo‘yish imkoniyati bor, Qoraqalpog‘istonda esa sho‘rlangan tuproqlarni o‘rganish orqali organik texnologiyalarni sinovdan o‘tkazish imkoniyati mavjud. Shu boisdan, har bir hududning tabiiy sharoitlaridan kelib chiqib, biomahsulotlarni yetishtirishda hududiy ixtisoslashuvga asoslangan yondashuvni tanlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu esa ekologik toza, sog‘lom mahsulotlar ishlab chiqarish va ichki hamda tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2022-yilda 4800 gektar maydonda sertifikatlangan biomahsulotlar yetishtirilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2018-yilga nisbatan 3 baravarga ortgan. Biroq bu hali umumiy ekin maydonlarining atigi 0,4 foizini tashkil qiladi. O‘zbekiston hududlari biomahsulotlar yetishtirish uchun salohiyatli resurslarga ega bo‘lib, bu sohaning rivoji iqtisodiy va ekologik jihatdan katta ahamiyatga ega. Har bir hududning iqlimiy, tuproq-iqlim sharoitlari, yer maydonlari va suv resurslari biomahsulot yetishtirish imkoniyatlarini belgilaydi. Masalan, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarining issiq iqlimi pestitsidsiz dehqonchilikni yo‘lga qo‘yish uchun qulay bo‘lsa, Qoraqalpog‘iston sho‘rlangan yerlarida ekologik texnologiyalarni sinab ko‘rish uchun imkoniyat mavjud [10], [11].

Biomahsulotlar yetishtirishning iqtisodiy salohiyati — bu tabiiy sharoitlardan oqilona foydalanish orqali yuqori daromad keltiradigan, ekologik toza va bozorga talab yuqori bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish imkonidir. U quyidagi mezonlar orqali aniqlanadi: yer va suv resurslarining sifati, iqlim mosligi, ishlab chiqarish xarajatlari, ichki va tashqi bozor talabi, infratuzilma mavjudligi va investitsiya kiritish imkoniyatlari. Biomahsulotlar eksportbopligi, aholining sog‘lom oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoji va ekologik toza ishlab chiqarish texnologiyalarining joriy qilinishi orqali iqtisodiy salohiyatga ega sohalardan biridir. Shu sababli, O‘zbekistonning turli hududlarida biomahsulotlar yetishtirish — nafaqat qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirish, balki aholi bandligi va sog‘lom turmush tarzini ta’minlash uchun ham muhim omildir [8], [9].

2-jadval.
O‘zbekiston hududlarida biomahsulotlar yetishtirishning iqtisodiy salohiyati¹

Hudud	Ixtisoslashgan mahsulotlar	Biomahsulot yetishtirish imkoniyati	Iqtisodiy salohiyat	Bozor talabi
Andijon	Sabzavotlar, mevalar	Organik sabzavotchilik rivojlanmoqda	Yuqori	Ichki va eksport
Qashqadaryo	G‘alla, poliz mahsulotlari	Issiq iqlim – pestitsidsiz yetishtirish mumkin	Yuqori	Ichki
Buxoro	Qand lavlagi, g‘o‘za	Keng yer maydonlari – ekologik dehqonchilik	O‘rta	Ichki
Qoraqalpog‘iston	Sholi, poliz, kartoshka	Sho‘rlangan tuproq – organik texnologiyalarni sinash maydoni	O‘rta	Sinov va ichki
Surxondaryo	Meva, sitrus, sabzavotlar	Janubiy iqlim – tezpishar ekinlar uchun qulay	Yuqori	Eksport

Yuqoridagi jadvalda “O‘zbekiston hududlarida biomahsulotlar yetishtirishning iqtisodiy salohiyati” hududlar kesimida tahlil qilindi. Unga ko‘ra, Andijon, Qashqadaryo va Surxondaryo biomahsulot yetishtirishda yuqori iqtisodiy salohiyatga ega bo‘lib, bu hududlarda organik, pestitsidsiz va eksportga mo‘ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun qulay sharoit mavjud. Buxoro va Qoraqalpog‘iston esa keng maydonlar yoki tajriba uchun mos hudud sifatida o‘rta salohiyatga ega bo‘lib, bu yerlar ekologik dehqonchilikni bosqichma-bosqich rivojlantirish uchun muhim maydonlardir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonning geografik joylashuvi, iqlimiy xilma-xilligi va tabiiy resurslari mamlakat hududlarida biomahsulotlar yetishtirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. So‘nggi yillarda ekologik toza va organik mahsulotlarga bo‘lgan talabning ortib borayotgani ushbu sohani iqtisodiy jihatdan istiqbolli yo‘nalishga aylantirdi. Hududlar kesimida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, biomahsulotlar yetishtirish imkoniyati har bir viloyatda har xil darajada namoyon bo‘lmoqda. Masalan, Andijon va Surxondaryo viloyatlari iqlim va suv resurslari jihatidan organik sabzavotlar va mevalarni yetishtirish uchun qulay bo‘lsa, Qashqadaryo hududida pestitsidsiz g‘alla va poliz mahsulotlarini yetishtirish samarali hisoblanadi. Buxoro va Qoraqalpog‘istonda esa keng yer maydonlari va ekologik sinov uchun mos sharoitlar mavjud bo‘lib, bu hududlar bosqichma-bosqich ekologik dehqonchilikka o‘tish imkoniyatiga ega. Biomahsulotlar yetishtirishda iqtisodiy salohiyatni belgilovchi asosiy omillar — bu yer va suv resurslari sifati, iqlim mosligi, mehnat resurslari mavjudligi, bozorlarga yaqinlik, infratuzilma, hamda investitsiya jalb qilish imkoniyatlaridir. Shu bilan birga, ichki va tashqi bozorlarning organik mahsulotlarga bo‘lgan talabi bu sohaning eksportbopligini ham kuchaytirmoqda [13], [14].

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda biomahsulotlar yetishtirish bo‘yicha hududiy ixtisoslashuvga asoslangan strategik yondashuv zarur. Bu esa nafaqat

¹ Muallif ishlanmasi

ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, balki iqtisodiy o'sishga, yangi ish o'rinlarining yaratilishiga va aholi salomatligining yaxshilanishiga ham xizmat qiladi. Shu sababli, biomahsulotlar yetishtirish O'zbekiston qishloq xo'jaligining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida rivojlantirilishi lozim. O'zbekistonning iqlim va yer resurslari biomahsulotlar yetishtirish uchun katta salohiyatga ega. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, biomahsulotlar nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, balki iqtisodiy samaradorlik bo'yicha ham ustunlikka ega. Hududlar kesimida biomahsulotlar yetishtirishni yanada rivojlantirish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va xalqaro tajribalarni joriy etish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tursunov, B. O. (2020). Agricultural potential of Uzbekistan and the perspectives of organic products in global markets. *Journal of Environmental Management and Tourism*, 11(2), 443–451. [https://doi.org/10.14505/jemt.v11.2\(42\).14](https://doi.org/10.14505/jemt.v11.2(42).14)
2. Ministry of Agriculture of the Republic of Uzbekistan. (2022). Strategy for the development of organic agriculture in Uzbekistan until 2030. Tashkent: MoA Publishing.
3. FAO. (2021). Organic agriculture in Central Asia: Status, policy, and market developments. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations.
4. Saidov, S. R. (2021). O'zbekistonda ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish salohiyati. *O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali*, 3(78), 17–22.
5. Rakhmatov, A., & Yuldashev, F. (2020). Export potential of organic fruits and vegetables of Uzbekistan. *International Journal of Agriculture and Food Science*, 8(1), 36–42.
6. State Committee on Statistics of Uzbekistan. (2023). Agricultural production indicators by regions. Tashkent: Goskomstat.
7. UNESCO. (2020). Sustainable development of agriculture and food security in Central Asia. Paris: UNESCO Publishing.
8. Akramov, K. T., & Abdullaev, I. (2017). Agricultural transformation and regional development in Uzbekistan. *Central Asian Journal of Economic Studies*, 5(1), 55–63.
9. GOST. (2022). Standards for organic product certification in Uzbekistan. Tashkent: Uzstandard Agency.
10. FAO Uzbekistan Office. (2022). Development of organic value chains in Ferghana Valley. Tashkent: FAO.
11. Komilov, M. A. (2021). The role of regional specialization in the production of bio-products in Uzbekistan. *Economics and Innovative Technologies*, 5(1), 79–86.
12. UNDP Uzbekistan. (2022). Green Economy in Uzbekistan: Opportunities for agro-sector transition. Tashkent: UNDP Report Series.
13. Qodirov, Z. B. (2023). Barqaror qishloq xo'jaligi va biomahsulotlar yetishtirish: mintaqaviy yondashuvlar. *Ilmiy tadqiqotlar jurnali*, 6(2), 64–70.
14. OECD. (2021). Agri-environmental indicators for Uzbekistan. Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, may, 5-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710. ГОСТ 7.56-2002** " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**